

## AUTIZM SINDROMLI BOLALAR (HOLATI, SABABLAR)

**Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'jayevich**

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Sultonmurodova Sevinchbonu Murodjon qizi**

Andijon Davlat Pedagogika Inistituti

Logopediya yo'nalish 101-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur tezis Autizm haqida , bunda bolaning holati asosan , autizmga chalingandan so'ng kuzatiladigan holatlari qisqacha bayon qilingan

**Kalit so'zlar :**Autizm sindromi, bolalik autizmi, autik bolalar, autizm spektri, ijtimoiy moslashuv

Autizmga chalingan bazi bolalarda avtoagressiya (o'z-o'zini shikastlash) alomatlari paydo bo'ladi, bu yerda uzoq vaqt o'tishi bilan ular keskin yomonlasha boshlaydi, chunki bola ulg'aygan sari o'sadi va shikastlanish oqibatlari kattalashib boradi. Sog'lom rivojlanayotgan bolaning 7 yoshgacha asosiy faoliyati o'yin hisblanadi. 3 yoshli bola o'yinchoqlarni xajmiga qarab ajrata oladi. Bolalar bilan turi o'yinlarni o'ynaydi, o'zi tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga xarakat qiladi, kopgina yangi o'yinchoqlarga qiziqish paydo bo'ladi. Autizm sindromiga chalingan bolalarda esa aksincha. Ular og'ir noqulayliklarni boshidan kechiradi. Agar kimdir ularga faol ravishda qo'l uzatsa, yugurib yashirinishi mumkin. Ular tengdoshlari bilan qanday o'ynashni do'stlashishni ham bilmaydi va ularda do'stlar bo'lmaydi, ular yolg'izlikni afzal ko'radi.

Autizmni ko'pchilik odamlar shizofreniya, aqli zaiflik va bolalar psixozisi bilan adashtirishadi. Autizm sindromi bo'lgan bolalarda taktil yok sensor sezgilarining oshganligi qayd etiladi. SHu bois ular odam-larning shovqinini, baland tovushlarni ko'tara olishmaydi. Autizmi bo'lgan bolalarning abilitatsiyasi hamda integratsiyasi bir qancha chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda ko'proq ijtimoiy hamkorlik o'rnatilishi, ya'ni tibbiyot xodimlari, psixolog, defektologlar o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borganlaridagina muayyan natijaga erishish mumkin. Baltimordagi Jans Xapkins universiteti tibbiyot fakultetining bolalar psixatri Leo Kanner 1943-yilda muxim maqola yozgan bo'lib (Neo Neuro Tribes) bu maqolda u kilinikasidagi 11 nafar bolani tavsiflagan, asosan obyektlarga e'tibor qaratgan, bir xillikka muxtoj yoki o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatadigan bolalar xarakterini o'rgangan. Ushbu bolalardagi psixologik xodisaga nom berish uchun Kanner «Bolalar autizmi» atamasini fanga kiritdi. Kanner buzulishning asosiy muammosi bolalarning (tug'ilishdan boshlab) odamlar va narsalar bilan oddiy munosabatda bo'la olmasligi haqida yozgan. Kannerning tadqiqotidagi bolalar bolalar ajoyib xotiraga ega edilar va osongina she'rlar va qo'shiqlar matnlarini o'qishni o'rganishlari yoki ismlarining uzun ro'yxatini yoki tasodifiy faktlarni o'rganishlari mumkin edi.

Autizm- rivojlanishdagi buzilish bilan bo'g'liq bo'lgan amaliy va asabiy holat. Bu holat odatda bolalik davrida boshlanadi va ijtimoiy muloqot, reaksiya va turmush tarzi kabi sohalarida qiyinchiliklarga olib keladi. Undagi asosiy qiyinchiliklar: ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar autizm bilan kasallangan shaxslar boshqalar bilan o'zaro aloqada qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin . Ular ko'z bilan aloqa o'rnatmasligi yoki muloqot qilishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Takroriy xatti-harakatlar autizmga chalingan bolalarda takroriy xatti-harakatlar yoki qiziqishlarga ega bo'lishi qayd etiladi. Masalan bir hil o'yinchoqni o'ynash yoki bir hil harakatni doimiy ravishda takrorlashi mumkin

Autizm – bu rivojlanishning bir ko'rinishidir, asosan kommunikatsiya ijtimoiy munosabatlar va xulq -atvorda qiyinchiliklar yasaydi.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

Autizm spektr buzilishi (ASB) ko'plab turdagi holatlarni o'z ichiga oladi :klassik autizm Asperger sindromi va boshqa o'zaro holatlar.

## 1. Belgilari:

- Ijtimoiy aloqadagi qiyinchiliklar
- kommunikatsiya qobiliyatlarining rivojlanishidagi muammlar
- o'zgarishlarga nisbatan noqulayliklar
- tuyg'ularni anglashdagi qiyinchiliklar
- O'zaro aloqaning cheklanganligi
- o'ziga xos qiziqishlar va takroriy holatlar
- ijtimoiy muloqotdan qochish

## 2. SABABLARI:

- Autizmning sabablari to'liq tushunilmagan, lekin genetik va atrof-muhit omillarining kombinatsiyasi muhim rol o'ynashi mumkin. Yangi tadqiqotlar, asosan, miyaning tuzilishi va funksiyasiga ta'sir etuvchi genetik o'zgarishlar va neyroximik tizimlar bilan bog'liq bo'lgan omillarni ko'rsatadi.

- genetik omillar
- atrof muhit ta'siri
- homiladorlik davridagi amaliyotlar

## 3. DIAGNOSTIKA:

- Ijtimoiy muloqot va kommunikatsiya muammolari: Autizmli bolalar ko'pincha ijtimoiy aloqada qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular boshqa odamlar bilan o'zaro muloqot qilishda, yuz ifodalari, tana tili va nutqdan foydalanishda muammolarni boshdan kechiradila

- Takrorlanuvchi xulq-atvorlar: Bunday bolalarda takrorlanuvchi harakatlar (masalan, qo'llarni chayqatish yoki doimiy ravishda bir xil so'zlarni takrorlash) va qiziqishlarning cheklanganligi kuzatiladi.

- Sensor va sezgirlik muammolari: Autizmli bolalar ko'pincha ma'lum ovozlar, yorug'lik yoki teginishlarga sezgir bo'lishadi, bu esa ularning kundalik hayotini murakkablashtirishi mumkin. stlar va baholash orqali amalga oshiriladi.

- davolash uchun mutaxassislar va psixologlar bilan maslahatlashish lozim.

## 4. Davolash usullari

-davolash strategiyalari, masalan mashqlar, muhokama terapiyasi va kelishuv asosida to'g'ri yordam berish ,maxsus ta'lim dasturlari.

Autizm sindromli bolalardagi o'ziga xos xususiyatlari:

1. Nutq va kommunikatsiya. Nutq rivojlanishi autizmli bolalarda sekinlashishi yoki umuman yo'qolishi mumkin. Ba'zi bolalar so'zlarni 2 yoki 3 yoshga kelib o'rganadilar, boshqalari esa hech qachon gapira olmaydi.

## 2. Emotsional va ijtimoiy rivojlanish

Ijtimoiy aloqada qiyinchiliklar ko'pincha ularning boshqa bolalar bilan o'yin o'ynashiga yoki o'z his-tuyg'ularini ifodalashiga to'sqinlik qiladi. Ular o'zaro muloqotda, boshqalar bilan birga bo'lishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

## 3. Takrorlanuvchi xatti-harakatlar va qiziqishlar :

Autizmli bolalar ko'pincha biror narsaga haddan tashqari qiziqadilar, bu qiziqishlar cheklangan va takrorlanuvchi bo'lishi mumkin. Masalan, ular ma'lum bir o'yinchoq yoki faoliyatni takrorlashni afzal ko'radilar.

Autizmli Bolalar Uchun Qo'llaniladigan Yondoshuvlar:

## 1. Erta diagnostika va terapiya

Erta tashxis qo'yish va terapevtik yondoshuvlar autizmli bolalarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Bu davrda bolalar uchun maxsus treninglar va rivojlanish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha dasturlar samarali bo'lishi mumkin.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

## 2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va integratsiya

Ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar, guruh o'yinlari va kommunikativ yondoshuvlar samarali bo'lishi mumkin. Ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi, bolalar uchun to'g'ri o'rganish muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

### Xulosa

Autizm sindromli bolalar turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, ularning hayotdagi muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. Erta diagnostika, individual yondoshuvlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Autizmli bolalarga eng yaxshi yordamni ko'rsatish uchun pedagoglar, psixologlar, va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik zarur. Autizm sindromining keng tarqalishi va uning turli shakllari jamiyatda yaxshiroq tushunish va samarali yondoshuvlarni rivojlantirishni talab qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M.YU, Logopediya.-T:O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati.-2007y
2. Maxsus pedagogika Xamidova M.Toshkent .Fan va texnologiya O'quv qo'llanma
3. Leo Kanner, 1894-1981-the Autizm Historiy Project-110Blogs. <https://edublogs.Uoregon>.
4. Z.T.Nishonov, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboevva . Bolalar psixologiyasi. Toshkent . 2017